



Korxonalar va tashkilotlar (2019-yil 1-fevral holatiga)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning yanvar oyida Respublikada 13,2 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,1 mingtaga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 46,6 mingta (16,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 335,7 mingtani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

(2019-yil 1-fevral holatiga)


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



351,3 mingtani
tashkil etdi

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, birlikda




15,5 %

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati

2019-yilning 1-fevral holatiga 351,3 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,5 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,2 % savdo, 17,5 % sanoat, 9,0 % qurilish, 7,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 2,1 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 28,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (81400 ta) savdo, (61519 ta) sanoat, (31486 ta) qurilish, (26586 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (21802 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (14159 ta) tashish va saqlash, (7499 ta) axborot va aloqa, (7041 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda (99766 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 335.7 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 46,6 mingta (16,1 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat



Qurilish




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Toshkent shahri (71754 ta), Toshkent (32074 ta), Farg'ona (30307 ta), Andijon (28172 ta) va Samarqand (26114 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Sirdaryo (10608 ta), Navoiy (11455 ta) hamda Jizzax (14856 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.



Yangi tashkil etilgan


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar oyida 13234 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 8137 taga ko'pdir.



Yangi tashkil etilgan korxonalarining o'sish surati

2017-yilning yanvar oyiga nisbatan 715 taga o'sgan




2018-yilning yanvar oyiga nisbatan 8137 taga o'sgan



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (6558 ta), sanoat (2424 ta), qurilish (1114 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (647 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (113 ta), axborot va aloqa (135 ta) hamda tashish va saqlash (335 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Toshkent shahri (2850 ta), Toshkent (1270 ta), Samarqand (1119 ta) va Farg'ona (1252 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (295 ta), Navoiy (327 ta) hamda Xorazm (858 ta) viloyatlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida



■ Korxonalar sonini o'sishi, birlikda


Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-fevral holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 277,0 mingtani tashkil qildi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



7810 ta


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan 39,3 % o'sgan.


Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 7810 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 2202 taga yoki 39,3 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 4116 tasi qo'shma, 3694 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.





7810

Qo'shma korxonalar


Xorijiy korxonalar

3694


4116




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Toshkent shahrida 4865 ta (jamidagi ulushi 62,3 %), Toshkent viloyatida 863 ta (11,0 %) va Samarqand viloyatida 408 tani (5,2 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xorazm 78 ta (1,0 %), Qashqadaryo 90 ta (1,2 %), Navoiy viloyatida 120 ta (1,5 %) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi 124 tani (1,6 %) tashkil etgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar




1

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2019-yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 281 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 176 taga ko'paygan.



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 43 ta, Turkiya Respublikasi – 41 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 33 ta, Qozog'iston Respublikasi – 37 ta, va Koreya Respublikasi – 24 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish dinamikasi, birlikda

	2018-yil yanvar oyida		2019-yil yanvar oyida	
	Jami	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	umumiy soniga nisbatan, %
Sanoat	45	42,9	74	26,3
Savdo	25	23,8	85	30,2
Qurilish	8	7,6	34	12,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	6	5,7	23	8,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	3,8	10	3,6
Axborot va aloqa	5	4,8	8	2,8
Tashish va saqlash	2	1,9	7	2,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1,0	5	1,8
Boshqa turlar	9	8,5	35	12,5

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 74 ta sanoat, 85 ta savdo, 34 ta qurilish, 23 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 65 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-fevral holatiga)



2019-yil 1-fevral holatiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 274,9 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 18,1 % ga oshgan.

2019-yil yanvar oyida 12,8 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 8,4 mingtaga ko'proqdir.



•Kichik tadbirkorlik
subyektlarining eng katta
ulushi

•Kichik tadbirkorlik
subyektlarining eng kichik
ulushi



•Toshkent shahri
22,7 %



•Buxoro viloyati
5,8 %



•Toshkent viloyati
9,6 %



•Xorazm viloyati
4,6 %



•Farg'ona viloyati
8,9 %



•Qoraqalpog'iston
Respublikasi
4,5 %



•Andijon viloyati
8,5 %



•Surxondaryo viloyati
4,5 %



•Samarqand viloyati
7,5 %



•Jizzax viloyati
4,3 %



•Namangan viloyati
6,4 %



•Navoiy viloyati
3,4 %




Qashqadaryo viloyati
6,3 %



•Sirdaryo viloyati
3,1 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 274,9 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 76,8 mingta (27,9 %) - savdo, 58,5 mingta (21,3 %) - sanoat, 30,0 mingta (10,9 %) - qurilish, 24,5 mingta (8,9 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 20,4 mingta (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 13,4 mingta (4,9 %) - tashish va saqlash, 6,9 mingta (2,5 %) - axborot va aloqa sohasi, 5,5 mingta (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, 39,0 mingtasi (14,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

51,1 %



Sanoat

18,9 %



Qurilish

8,6 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

6,2 %



Tashish va saqlash

2,6 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

5,0 %



Axborot va aloqa

1,0 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

0,9 %




Boshqa turlar

5,7 %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 6549 ta, sanoat 2418 ta, qurilish 1107 ta va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 637 ta tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 112 ta, axborot va aloqa 133 ta hamda tashish va saqlashda 335 ta tashkil etilgan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda



Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahri (2785 ta), Toshkent (1235 ta), Samarqand (1074 ta) va Farg'ona (1234 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Sirdaryo (276 ta), Xorazm (830 ta) hamda Navoiy (302 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Ro'yxatdan o'tgan




Faoliyat ko'rsatayotgan



Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 36,8 % yoki 6142 tasi sanoat, 21,7 % yoki 3627 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,9 % yoki 2986 tasi savdo, 10,7 % yoki 1790 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,2 % yoki 202 tasi qurilish, 1,1 % yoki 182 tasi tashish va saqlash, 1,1 % yoki 184 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 162 tasi axborot va aloqa hamda 8,5 % yoki 1413 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Statistik registrlarni yuritish va
tizimli xizmat ko'rsatish
boshqarmasi.**

Nashr uchun mas'ul : N.Sheraliev

Tel.:71-230-80-90(91)